

Shartnoma № 379
(Qo'riqlash xizmati ko'rsatish bo'yicha)

Termiz sh.

“26” yanvar.2022 yil.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surxondaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Surxondaryo viloyat Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik A.A.Umarov (keyingi o'rinlarda «Ijrochi» deb yuritiladi) bir tomondan Termiz shaxridagi Prezident maktabi direktori G'E.Tog'ayev.

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. Shartnoma predmeti

1. Ijrochi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surxondaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi harbiylashtirilgan va soqchilik qo'riqlashi ko'rinishida, texnik qo'riqlash punktidan (keyingi o'rinlarda TQP deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkiga nisbatan qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.

№	Ko'rsatilgan xizmatlar	O'lchov birligi	Tarif	Post	Oylik qo'riqlash vaqti	Kunlik qo'riqlash vaqti	Kun/oy	Jami
1	Xarbiylashtirilgan soqchilik bo'yicha (Boshqaruvchi 6 birlik)	dona	32 252,00	1,00	730,00	24 soat	1,00	23 543 960,00
2	Tashvish tugmasi	dona	3 128,00	1,00	243,00	22:00 dan 06:00 gacha	1,00	760 104,00
3	Qo'riqlash yong'indan oqoxlantirish signalizatsiyalariga	dona	29 547,00	2,00	1,00	22:00 dan 06:00 gacha	1,00	59 094,00

Umumiy summa: 24 363 158,00 (yigirma to'rt million uch yuz oltmish uch ming bir yuz ellik sakkiz so'm nol tiyin.)

3. Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 martdagi PQ-5029 son Qarori xamda 17 avgustdagi "Ish xaqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni va Moliya Vaziri tomonidan tasdiqlangan tarifga asosan, 2021 yil <01> sentabr'dan xisoblansin.

2-bob. Umumiy shartlar

4. Ob'ektdagi kirish - chiqish, ichki ob'ekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish - chiqish va ichki ob'ekt rejimini tashkil etish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo'riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno.

6. Ob'ektni qo'riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchi itlardan foydalanish mumkin.

7. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, qo'riqlash - kuzatuvga 3(uch) ish kuni Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati turi yo'lga qo'yiladi.

8. Buyurtmachi ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan talablarni bajarmaganda Ijrochi qo'yilmaydi, qo'yilgan Ijrochi esa chaqirib olinadi.

3-bob. To'lovlarni amalga oshirish

9. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi: post - soat hisobida qo'riqlash xizmati narxi **24 363 158,00 (yigirma to'rt million uch yuz oltmish uch ming bir yuz ellik sakkiz so'm nol tiyin.)** , 12 oyga **292 357 896,00 (ikki yuz to'qson ikki million uch yuz ellik etti ming sakkiz yuz to'qson olti so'm nol tiyin.)**

10. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

11. Buyurtmachi mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab, o'n kun ichida mazkur Shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi. Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma taqdim qilingandan so'ng Buyurtmachi besh kun ichida avans to'lovini chiqarib tashlagan holda oylik to'lovni amalga oshiradi. Buyurtmachi budjet

tashkiloti yoki budget mablag'lari oluvchi bo'lsa, oylik to'lovning 100 foizi miqdorida avans to'lovini keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.

12. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 11 - bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni(avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptli to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir. Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda Ijrochi Buyurtmachi bilan to'langan to'lovlar bo'yicha qayta hisob - kitobni amalga oshirishi zarur.

4-bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

13. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega: Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etishini talab qilish; xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rilishini Ijrochidan talab qilish; Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim - bosh, anjomlari(ekipirovkasi), qurol - aslahalarining mavjudligini nazorat qilish; Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish; Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish; Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish.

14. **Buyurtmachining majburiyatlari:** Mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 20²² yil «05» subap dagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan ob'ekt, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (ob'ektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, ob'ekt perimetri bo'yab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash; Har qanday moddiy qimmatliklarni ob'ekt hududining devor to'sig'idan 3 metr uzoqlikda(ob'ekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish; Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzish; belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash; Binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, ob'ektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, ob'ekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 14 kun oldin ogohlantirish; Ob'ektda ish kuni yakunida qo'riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ijrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar ob'ekt tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo'riqlashga topshirish. Ob'ekt qo'riqlashga topshirganlik haqida TQPni xabardor qilib, 5 daqiqadan so'ng ob'ektning qo'riqlashga qabul qilinganligi haqida ishonch hosil qilish; Ob'ekt qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyatsiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilish holatini tekshirish, qo'riqlanadigan binolarda elektr jihozlarning, boshqa yong'in manbalarining yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning ob'ektda qolishiga yo'l qo'ymaslik; Qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob - kitob asosida qabul qilish - topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish; Maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan ob'ektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish; Qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki ob'ektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar yetkazilganligi alomatlar mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va ob'ektga Ijrochi vakili yetib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlash; Begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik; Ijrochi vakillarini ob'ektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan ularning o'z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish;

15. Ijrochining huquqlari: Buyurtmachidan ob'ektda o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rioya qilinishini talab qilish; Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish; ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash - texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish.

16. Ijrochining majburiyatlari: Ob'ektda postlar dislokatsiyasiga (patrul yo'nalishiga) muvofiq qo'riqlash naryadini joriy etish; Mazkur Shartnomada va uning ilovalariga muvofiq ob'ektni hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash; Qo'riqlanayotgan hududdagi, lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob - kitob asosida qabul qilish - topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish; Ob'ektda kirish-chiqish va ob'ekt ichki tartibga rioya etish, ob'ekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish; Propusk rejimi mavjud bo'lgan ob'ektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan ob'ektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarning chiqib ketishini ta'minlash; Ob'ektni qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta'minlash; Ob'ektda yong'in chiqishi yoki yong'in dan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in bo'limiga yoki Buyurtmachiga xabar berish; Ob'ektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va ob'ektning daxlsizligini ta'minlash; Yong'in dan qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va ob'ektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va ob'ektni qayta topshirish bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma tuzish; Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim - bosh, kiyim - bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol - aslahalarining mavjudligini ta'minlash; Ob'ektni qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda ob'ektdagi texnik mustahkamlik bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish; Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnikaviy jihatdan mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'in dan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigini o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish; Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko'rish uchun berish; Qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati navbatchi qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati vakili yetib kelgunga qadar hodisa yuz bergan joyning daxlsizligini ta'minlash.

5-bob. Tomonlarning javobgarligi

17. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

18. Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalishlarida bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

19. Penyani to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

20. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to'liq miqdorda qoplanadi.

21. Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararining miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

22. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi: ijrochi shartnomaga ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa; Qabul

qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar yetkazilganda; buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar yetkazilganda.

23. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka(jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6-bob. Nizolarni hal qilish tartibi

24. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

7-bob. Fors-major

25. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

26. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart.Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.Fors - major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

27. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi.Agarda fors - major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8-bob. Yakuniy qoidalar

28. Mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Mazkur Shartnoma budjet tashkilotlari yoki budjet mablag'lari oluvchilari bilan tuzilganda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

29. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.Tomonlar mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

30. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi: ho'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha — Tomonlar tarafdin imzolangan kundan boshlab Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar; budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilari bo'yicha — belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yilning 31 dekabr kuni oxirigacha. Buyurtmachi ho'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lgan taqdirda Buyurtmachi mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Ijrochiga Shartnoma muddati tugashidan ___ kun oldin ma'lum qilmasa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

31. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachining aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga yetti kun oldin yozma ma'lum qilgan holda alohida ob'ektlarni qo'riqlashni rad etishi mumkin.

32. Buyurtmachi ketma - ket uch marta mazkur Shartnomaning 11 - bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatda to'lamasa, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Ijrochi ketma - ket uch marta post va patrul yo'nalishlarida qo'riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

34. Tomonlar mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida 14 kun oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

35. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

9-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

«Bajaruvchi»

«Buyurtmachi»

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Surxondaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi

Termiz shaxridagi Prezident maktabi

Yuridik manzili: "Nurofshon" ko'chasi 2-uy
Bank ma'lumotlari: Markaziy bank XKKM
Termiz shaxri
Hisob raqami: 21596000100472756001
MFO: 00024
STIR: 200474157
KTUT: 97920

Yuridik manzili: Termiz shaxar Xakim at-
Termiziy shox ko'chasi 34 b-uy

Bank ma'lumotlari: Nov. u. XKKM
Hisob raqami: 23402000300100001010
MFO: 00014
STIR: 201122919
KTUT: 85310 308 851216

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Surxondaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi
boshlig'i

ulxb 100010860224017092300349001
Termiz shaxridagi Prezident maktabi
direktori



A.A.Umarov

(Imzo / MO')



G'.E.Tog'ayev


(Imzo / MO')

Huquqshunos xulosasi

Tomonlarning javobgarligi va nizolarini hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga va « Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida » gi Qonunining moddalariga mos keladi.

Yuqorida kayd etilganlarni inobatga olib, barcha shartlar bo'yicha kelishuvga erishilsa, shartnoma imzolanishini maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

O'z.Res.Milliy gvardiyasi Surxondaryo viloyati
Qo'riqlash boshqarmasi bosh yuristkonsult
leytenant:



A.I.Ibragimov